



## DANTE “ILOHIY KOMEDIYA” SIDA SHARQIY SYUJETGA TAYANGANMI?

**Xolmatova Durdona Alimardon qizi**

*FarDu filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Italyaning buyuk adiblaridan biri bo‘lgan Dante Aligeri qalamiga mansub “Ilohiy komediya” asari tahlil va talqin qilinadi. Asarning sharqiy janrlardan hisoblangan “Me’rojnoma” bilan o‘xshash tomonlari qiyoslanadi. Abdulla Oripov tarjima qilgan “Jahannam” bo‘limining azobli qavatlari haqida so‘z yuritiladi. Muallifning asarni yozishdan ko‘zlagan maqsadi falsafiy tomondan ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Dante Aligeri “Komediya”, “Me’rojnoma”, Ibn Sino, uyg‘onish davri adiblari, xristianlik xarakteri, ruhiy poklanish, falsafiy qarashlar, Jahannamning 9 pog‘onasi

**Abstract:** This article analyzes and interprets the work “The Divine Comedy” by Dante Alighieri, one of the greatest Italian writers. The work's similarities with the Eastern genre "Merojnoma" are compared. The painful levels of the "Hell" section, translated by Abdulla Oripov, are discussed. The author's purpose in writing the work is revealed from a philosophical perspective.

**Keywords:** Dante Alighieri, "Comedy", "Me'rajnoma", Ibn Sina, Renaissance writers, Christian character, spiritual purification, philosophical views, The 9 levels of hell

**Аннотация:** В данной статье анализируется и интерпретируется произведение «Божественная комедия» Данте Алигьери, одного из величайших итальянских писателей. В работе сравниваются сходства произведения с восточным жанром «Мерожнома». Обсуждаются мучительные уровни раздела «Ад», переведенного Абдуллою Ориповым. Цель автора при написании произведения раскрывается с философской точки зрения.

**Ключевые слова:** Данте Алигьери, «Комедия», «Мераджнома», Ибн Сина, писатели эпохи Возрождения, христианский характер, духовное очищение, философские взгляды, 9 уровней ада

Florensiyalik Dante Aligeri jahon adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan durdona asarlardan biri “Ilohiy Komediya” ni yozishga musharraf bo‘ldi. Ilk yaratilganda asar “Komediya” nomi bilan chop etilgan bo‘lsada, Dante o‘limidan so‘ng unga Ilohiy so‘zi qo‘shib aytiladigan bo‘ldi. Asar 3 katta bo‘limdan iborat bo‘lib: birinchi qismda Jahannam, ikkinchi qismda A’rof, uchunchi qismda Jannat tasvirladi. Har bir bo‘lim 33 qo‘shiqdan iborat. Har bir qo‘shiq 3liklardan tashkil topgan. Asarning sarlavhasidan ham ko‘p ma’nolarni anglash mumkin. Komediya so‘zi avvali g‘am qayg‘u bilan boshlanib, oxiri kulgi bilan tugovchi janr demakdir. Demak Dante ham o‘z asrini shu ma’nolarga monand yaratgan. Avval gunohkor bandalar Jahannamning 9 chuqurligida azoblanadilar, so‘ng yerning ustiga chiqadilar, so‘ng Jannatga

ko'tarilishadi. Har bir pog'ona ruhiy poklanish belgisi bo'lib, ideal inson darajasiga yetishish aks etadi.

Dante tasvirlagan "Do'zax" (asarning birinchi qismi) yer markaziga voronka shaklida o'yib tushirilgan joy bo'lib, unda paski pog'onaga tusha borgan sari jon qattiqroq azoblanadi. Muhimi shu yerdaki, Dante o'zining siyosiy muxoliflarini Do'zaxga tashlaydi, ayniqsa, xristian dini ruhoniylarini qattiq qoralaydi va ularni do'zaxning so'nggi pog'onalariga joylashtiradi. Dantening tasviricha, "A'rof" (poemaning ikkinchi qismi) yer kurrasiga qarama – qarshi joylashgan. [1. 109]

Yirtqich hayvonlardan: qashqir, arslon, qoplon obrazlari, asarning 3 qism va 33 qo'shiqdan iboratligi, har bir qo'shiqning uchliklardan tashkil topganligi Dantening e'tiqod masalasiga borib taqaladi. Bu raqamlar xristianlikda ulug' sanalgan uchlikka qiyoslansdi. Demak shoir asarini o'z e'tiqodiy qarashlariga ko'ra boyitgan.

Dante sharq adabiyotiga o'ta ixlosmand shaxs bo'lgan. Xususan adabiy janrlarga xos bo'lgan "Me'rojnomaga" uni ko'p qiziqtirgan. Asarni tahlil qilar ekanmiz syujet jihatidan Ilohiy komediya va Me'rojnomaga o'rtasidagi o'xshashliklarga guvoh bo'lamiz. Islomiyat tarixida Isro va me'roj kechalari juda mashhur. Shundayki, bu voqea Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Makkadan masjidul Aqsoga va undan Arshi a'lologa ko'tarilishlari, u yerda ko'rgan kechirgan hodisalari bayon qilinadi. Rosululloh alayhissalomning vafotlaridan keyin bu voqea xalq orasida og'izdan og'izga ko'chib yurdi.. Keyinchalik adabiy janr sifatida shoirlarni qalam tebratishiga sabab bo'ldi. Dante o'z asari syujetini shu etalonga mos ravishda yaratdi.

Eslomam, lekin bu tushmidi, sarob,  
Qandoq kirdim, uy yon yo'limdan ozib,  
Qanday ro'yo meni etgandi harob?!

Boqdim, sayyoralar bo'ldi namoyon,  
Ularning rahnamo nuri basama-bas  
Porlardi tog'larning kufrida shoyon.

Yuqoridagi satrlardan ma'lumki, Dante ham o'ziga olamga tushib qolgandek. Yo hayotligida, yoki tushida shu yerda paydo bo'lib qolgandek tuyuladi. So'ngra uning rahnamosi ustoz Vergiliy ko'rinadi.

Bu sen Vergiliymi bepoyon ochun  
Quyidan bahramand bo'lgan chashmadil?  
Shunday javob qildim jahd ortib butun.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tomonidan tarjima qilingan "Jahannam" qismida Dantening qorog'u o'rmonda sarson kezishi, bu mushkulotni Rim shoiri Vergiliy ko'magi bilan yengib o'tishi, so'ng ikkovi birga Do'zaxning tubigacha sayohatlari keng tasvirlanadi. Har bir qavatda o'ziga xos g'aroyibotlarga guvoh bo'lishadi. Eng birinchi

qavat Limbo deb nomlanib u yerda uygʻonish davri mutafakkirlari xususan Ibni Sino, Ibn Rushd, Homer, Goratsiy, Ovidiyalar borligi xabari beriladi. [2]

Jahannam yerning ostiga qarab varyonka shaklida 9 qavatli qilib tasvirladi. Har bir qavatga tushib borisharkan insonlarning gunohlari ham ogʻirlashib boradi. Shundek azoblar ham tobora qiyinlashadi. Dante oʻzining nasroniy aqidasi koʻra Iso paygʻambarga iymon keltirmagan har kim doʻzaxga mahkum shuningdek, zino, kufr, yolgʻon, sudxoʻrlik, boʻyinsunmaslik, nizo chiqarish, gʻazab kabi illatlarni sodir qilgan gunohkorlar jazolanishi aytiladi. Eng oxirgi 9- pogʻonada ilmi boʻlib amal qilmagan ruhoniylar azoblanadi.

Tarjima sifatida faqat “ Jahannam “ qismi yetib kelgani bois asarga tanqidiy fikr bildirmaymiz. Falsafiy qarashlarga koʻra Dante bu asar orqali jamiyatdagi barcha chirkin ishlarlarni qoralaydi. Ularga oxiri albatta azob boʻlishini uqtiradi. Bu bilan Dante yomon insonlarni ogohlantirish bu yoʻlidan qaytarish va toʻgʻri yoʻlga boshlash uchun dasturilamal boʻlishini koʻzlatadi.

Xulosa oʻlaroq aytish mumkinki, Dante oʻz zamonasining yetuk mutafakkirlaridan boʻldi. Uning falsafiy va didaktik yoʻsinda bitilgan asari dunyo yuzini koʻrdi. Bir necha oʻnlab tillardan tarjima qilindi. Shoh arlaridan sanalgan “ Ilohiy Komediya” haqida tanqidiy fikrda boʻlmay, gumanistik gʻoyalar asosida yaratilgan ijod namunasi sifatida nazar tashlash maqsad muvofiq. Sababi asarning keyingi Aʻrof va Jannat boʻlimlari insonni komillik sari intilishi, tavba va oʻzni isloh qilishga undash maqsadi aks etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. U.Hamdammov, A.Qosimov. Jahon adabiyoti. (0ʻquv Qoʻllanma). -T.: «Barkamol fayz media», 2017.
2. Abdulla Oripov. Ilohiy Komediya. – T: “ Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti”.2001
3. Botirovna Rayhona Qarshi davlat universiteti magistranti [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)

